XALQ DEPUTATLARI CHORTOQ TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-14-141-6-88-K/25 Chortoq tumani

Chortoq tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-17-165-6-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Namangan viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarkmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 02/10-7124-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Chortoq tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2025 yil 25 dekabrdagi 1105-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Chortoq tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **156 247 574 ming.so‘m** va xarajatlari esa **156 247 574 ming.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Chortoq tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **329 110 ming.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek tumani mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar meyorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 972 033 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan

vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Boymirzaev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Jabbarov), tuman soliq inspeksiyasi (Tulakov) bilan birgalikda 2026 yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Chortoq tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (O‘.Boltaboev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari B.Boymirzaev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SATTAROV ILXOMJON RAXIMJANOVICH**

Xalq deputatlari Chortoq tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-141-6-88-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Chortoq tuman budjeti daromadlarining 2026-yilgi prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘m)

№	DAROMAD TURLARI	Jami kontingent prognoz	shundan,				Mahalliy budjet prognoz
			MRI	Hudud	shundan		
					DSB	DSI	
I.	JAMI	327 828 432	107 039 000	220 789 432	159 453 000	61 336 432	156 247 574
1	Foyda solig‘i	52 284 000	36 918 000	15 366 000	15 366 000		3 073 200
2	*Norezidentlar foydasidan soliq*	*52 000*		*52 000*	*52 000*		
3	Aylanmadan olinadigan soliq	13 985 000		13 985 000		13 985 000	13 985 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	89 700 000	14 198 000	75 502 000	67 907 000	7 595 000	58 237 140
	shundan, mol-mulkini ijaraga berishdan tushumlar	424 000	4 000	420 000	140 000	280 000	424 000
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	76 729 000	45 288 000	31 441 000	31 441 000		4 779 032
6	Aksiz solig‘i	15 386 000	3 404 000	11 982 000	11 982 000		10 783 800
	yakuniy iste’molchi (benzin,dizel va gaz uchun)	*15 386 000*	*3 404 000*	*11 982 000*	*11 982 000*		*10 783 800*
7	Mol-mulk solig‘i	17 916 000	2 339 000	15 577 000	3 187 000	12 390 000	15 577 000
	yuridik shaxslar	*6 806 000*	*2 339 000*	*4 467 000*	*3 187 000*	*1 280 000*	*4 467 000*
	jismoniy shaxslar	*11 110 000*		*11 110 000*		*11 110 000*	*11 110 000*
8	Yer solig‘i	34 163 432	2 278 000	31 885 432	6 307 000	25 578 432	31 885 432
	yuridik shaxslar	*11 135 000*	*2 278 000*	*8 857 000*	*6 307 000*	*2 550 000*	*8 857 000*
	jismoniy shaxslar	*23 028 432*		*23 028 432*		*23 028 432*	*23 028 432*
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	1 195 000	982 000	213 000	213 000		1 195 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 131 000	1 632 000	3 499 000	1 899 000	1 600 000	3 799 400
11	Boshqalar	21 287 000		21 287 000	21 099 000	188 000	12 932 570

	DUK sof foydasidan ajratmalar	*1 000*		*1 000*	*1 000*		
	Davlat boji	*9 524 000*		*9 524 000*	*9 524 000*		*5 714 400*
	Yig‘imlar	*2 997 000*		*2 997 000*	*2 997 000*		*1 798 200*
	Jarimalar	*8 577 000*		*8 577 000*	*8 577 000*		*5 231 970*
	Davlat mulkini ijarasi	*188 000*		*188 000*		*188 000*	*188 000*

Xalq deputatlari Chortoq tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-141-6-88-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Chortoq tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

(ming so‘m)

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Chortoq tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**156 247 574**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*58 436 238*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*3 460 800*
3	Madaniyat bo‘limi	*6 965 800*
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*6 563 868*
5	Sport bo‘limi	*6 815 124*
6	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 838 068*
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 214 366*
8	Irrigatsiya bo‘limi	*3 148 738*
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*2 099 977*
10	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*187 187*
11	Hokimiyat	*45 735 086*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*26 196 415*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 057 000*
	Zahira jamg‘armasi	*1 972 033*
12	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*868 012*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*105 309*
	Axborot-kutubxona markazlari	*762 703*
13	Obodonlashtirish boshqarmasi	20 375 110
14	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Chortoq tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-14-141-6-88-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yil uchun Namangan viloyatining viloyat, Chortoq tuman budjet o‘rtasida ajratmalar normativelari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar

(foiz hisobida)

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				QQS				Foyda solig‘i			
		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
		MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
1	Chortoq tumani	0%	77%	100%	23%	100%	100%	0%	0%	0%	76%	100%	24%	0%	20%	100%	80%

Hududlar nomi	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq			
	Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
Chortoq tumani	0%	90%	100%	10%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%

Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
	Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB
Chortoq tumani	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	0%	0%	0%

Hududlar nomi	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
	Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga		Tuman (shahar)lar byudjetiga		Viloyatning viloyat byudjetiga	
	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB	MRI	DSB

Chortoq tumani	100%	100%	0%	0%	0%	0%	100%	100%

Hududlar nomi	Aylanmadan soliq		Davlat boji		Jarima		Yig‘imlar	
	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga	Tuman (shahar)lar byudjetiga	Viloyatning viloyat byudjetiga
Chortoq tumani	100%	0%	60%	40%	61%	39%	60%	40%